

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

X.Mamajonov	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айrim fikr-mulohazalar	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari	118
A.Abduraxmonov	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati	122
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	127
N.Karimova	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi	134
P.Ro'ziboyeva, B.Karimov	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi	138
N.Avazov	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
Sh.Axmedova	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
N.Soatova	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati	155
Sh.Turg'unov	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida	162
TILSHUNOSLIK	
Sh.Iskandarova, F.Musayeva	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
D.Ganiyeva	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
N.Xoshimova	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi	184
M.Hojiyeva	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning asosi sifatida	187
V.Giyosova	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doir mulohazalar	190
S.Ahmadaliyeva	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
H.Saipova	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari	197
MATEMATIKA	
T.Ergashev, D.Urinboyeva	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
B.Kadirkulov, M.Jalilov	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala	209
N.Murolimova	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala	214
<u>FIZIKA - TEXNIKA</u>	
X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	223
M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

ZAMONAVIY ELEKTR JIHOZLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING MODERN ELECTRICAL EQUIPMENT

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ СОВРЕМЕННОЙ ЭЛЕКТРОТЕХНИКИ

Raxmonjonov Xasan Akbarovich¹, Shuxratov Sharof Shuxratovich²

¹Raxmonjonov Xasan Akbarovich

– Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi magistranti

²Shuxratov Sharof Shuxratovich

– Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi dotsenti, tffd (PhD)

Annotatsiya

Ta'lilda va pedagogik faoliyatda, zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish dars samarasini oshiradi, telekommunikatsiya, vizualizatsiya va STEAM metodlaridan foydalanish o'quvchilar tasavvurini rivojlaniradi, muammoli vaziyatda bir nechta yechim topa oladilar, o'quvchilarning olayotgan bilimlarini yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib kamol topishiga zamin yaratadi. O'zbekiston pedagog ustozlarning ta'lim berish saviyasini rivojlangan davlatlarning ta'lim berish darajasiga tenglashtirishga qaratilgan bir nechta metodlar ko'rsatilgan.

Аннотация

Использование информационных технологий в учебно-педагогической деятельности, обучение современной электротехнике повышает эффективность уроков, использование телекоммуникаций, методов визуализации и STEAM развивает воображение учащихся, позволяет находить несколько вариантов решения проблемных ситуаций, высокий уровень знания эффективно помогают им в будущем стать квалифицированными профессионалами. Существует несколько методов, направленных на повышение уровня образования учителей Узбекистана до уровня образования в развитых странах.

Abstract

The use of information technology in education and pedagogical activities, the teaching of modern electrical equipment increases the effectiveness of lessons, the use of telecommunications, visualization and STEAM methods develops students' imagination, can find several solutions to problem situations, high level of knowledge effectively helps them to become qualified professionals in the future. There are several methods aimed at bringing the level of education of teachers in Uzbekistan to the level of education in developed countries.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyasi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, QR kod, vizualizatsiya, STEAM, "Multisim"

Key words: information technology, information and communication technologies, QR code, visualization, STEAM, "Multisim"

Ключевые слова: информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, QR-код, визуализация, STEAM, "Multisim".

KIRISH.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangromoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda [1].

Ana shunday muhim tarixiy davrda ta'lim ham shaxdam qadam bilan rivojlanmoqda. Buning yaqqol misoli, erishilayotgan yutuqlar va siyosiy islohotlarda ko'rish mumkin. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda ilm-fan ham rivojlanib, yangiliklar yaratilishi lozimdir va shunday bo'limoqda ham.

Ta'lim sohasida axborot texnologiyalari yordamida ancha yuqori natijalarga erishib pedagog ustozlarning ish faoliyati sifatini oshirib bormoqda. Bugungi davrda an'anaviy darslardan zerikib borayotgan o'quvchilarni darsga bo'lgan e'tiborini jalb etish qiyin. Buning uchun o'qituvchi doimiy izlanishda bo'lishi, kreativ ijodkor bo'lishi darkor. O'quvchilar o'zları qiziqadigan (SMART doskasi, videoproyektor, kompyuter, telefon va boshqalar) axborot texnologiyalari yordamida o'tiladigan

noananaviy darslarga almashtirish yuqori natijalarni beradi. Vaholanki, inson o'zi yoqtirgan mashg'uloti bilan yangiliklar yaratishga, erkin fikrlashga va mustaqil izlanishga harakat qiladi. Bu esa keljakda o'quvchilarni olim bo'lib yetishiga yordam beradi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Avvalo axborot texnologiyasi deganda – axborotni to'plash saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlariga aytiladi [3,4].

Ta'lrim amaliyotida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lrim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta'lrim tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham pedagogik jarayon bo'lib, talaba va o'qituvchi faoliyatidagi o'zgarish, yangilik kiritish, o'quv jarayonida interfaol metodlardan to'liq foydalanishni o'z ichiga oladi. Oliy ta'limda elektrotexnika mashg'ulotlari jarayonida interaktiv elektron "Multisim" dasturidan foydalanish o'quv jarayoniga yangi sifat darajasini olib kiradi. Bu esa o'qituvchiga nafaqat dars mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishni va darsni olib borishni yengillashtiradi, balki yangi imkoniyatlarni ham yaratib beradi.

Elektrotexnika fanidan o'qitishning kafolatli natijaga erishish uchun o'qitishning axborot-ta'lrim tizimi sharoitini tashkil etishda texnik, elektron dasturiy, didaktik va tayyorgarlik muhitiga ega bo'lish kerak. Bunda: Texnik muhit: kompyuter xonasi, internet tarmoqlariga ulangan kompyuterlar va interaktiv "Multisim" dasturi o'rnatilgan bo'lishi kerak. Didaktik muhit: "Multisim" boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, dasturlardan to'liq foydalanish uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi elektron ta'lim ashyolari, uslubiy ko'rsatmalar bo'lishi kerak. Bunday muhitni yaratish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim. Texnik muammolar: shaxsiy kompyuter, ularning ishlashi uchun qurilmalar va "Multisim" dasturi; didaktik muammolar: ta'lrim tizimida foydalanish uchun kerak bo'ladiqan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi elektron ta'lim ashyolari; tayyorgarlik muammolar: elektrotexnika fani o'qituvchisining o'zi yuqori darajada kompyuter, uning qo'shimcha qurilmalaridan, interaktiv o'quv dasturlaridan hamda internet tarmoqlaridan to'liq foydalanishni bilishlari kerak. Buning uchun elektrotexnika fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya va zamonaviy interaktiv "Multisim" dasturlardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish lozim. Chunki talabalar "Multisim" dasturi bilan ishslashda sxemani yaratishni, o'lchov asboblarini tanlash va o'rnatishni, sxemani aktivlashtirish, ya'ni o'rganilayotgan qurilmada kechayotgan jarayonlarni hisoblash va nazorat qilishni o'rganadilar. [5,6].

Zamonaviy elektr jihozlaridan foydalanishda axborot texnologiyalari yordamida o'qitishning ikkita texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi, **telekommunikatsiya texnologiyasi** – ushbu texnologiya orqali soha mutaxassislari bilan muloqot qilishlari, ramziy, matnli, grafik, audio-video ma'lumotni taqdim etishlari, axborotni o'zaro almashishlari va tashishlari, translyatsiya qilishlari mumkin. Zamonaviy elektr jihozlarini ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqa qilgan holda (videosuhbat) ishlab chiqarish texnologiyasini o'rganish suhbat orqali bilib olish mumkin. Mutaxassis hodim elektr jihozlarining tayyorlanish texnologiyasini amalda ko'rsatib bersa, o'qituvchi nazariy tushuntirib beradi. Pedagog va mutaxassis bergen ma'lumotlar uyg'unlashib o'quvchida ko'nikma va bilim paydo bo'ladi [7,8].

Ikkinchisi, bu **kompyuterni vizualizatsiya qilish texnologiyasi** o'rganilayotgan ob'ekt haqida ta'lim ma'lumotlaridir. Bu yerda darsliklar va axborot texnologiyalarni o'zaro bog'liqligi kelib chiqadi. O'quvchilar darslikdan ma'lumotlarni o'qib yetarli darajada tasavvurga ega bo'lmashliklari yoki tushunmasliklari mumkin. Shunda o'quvchi darslikda aks ettirilgan QR shtrix kodiga telefon kamerasini yoqgan holda yaqinlashtiradi va dastur ishga tushib internet sahifasiga oldinroq joylashtirilgan ma'lumot vizualizatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'quvchi real hayotga yaqinroq tasvirni ko'rib tasavvurga ega bo'ladi [9,10].

Uchinchisi, **STEAM yondashuv metodi**. Bizga ma'lumki STEAM ta'lrim tizimida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani o'z ichiga olib o'rganadi (1-rasm). Bu metod bilan o'quvchilar obyektni nafaqat bir yo'nalishda, balki bir necha yo'nalishda o'rganadilar. O'quvchilarga bir necha yo'nalishda ma'lumot berilib, topshiriqlar va savol – javoblar ham shu

FIZIKA-TEXNIKA

yo'nalishlarda bo'ladi. Misol tariqasida elektr jihozlaridan elektr drelini oladigan bo'lsak, fizika fanidan - elektr drel elektr jihoz ekanligini va elektr tokida ishlashini, texnologiya fanidan - elektr drelning qismlarini yig'ish, ish ketma – ketligi, texnologik xaritasini, muhandislikda – elektr drelning vazifasi, qanday ishlar bajarilishini, drel yordamida nimalarni yasash mumkinligini, san'at yo'nalishida – usta hunarmandlar tomonidan badii obrazli buyumlarni tayyorlanishini, matematika fanidan – elektr drelning geometrik o'lchovlari, qanday o'lchovlarda teshiklar ochilishini o'quvchilarga fanlarni bir biriga bog'lab tushuntirish mumkin. Bu berilayotgan ma'lumotni tor ma'noda emas balki keng ma'noda o'rganishlariga imkon beradi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarda bitta yechim bilan kifoyalaniib qolmay, masalaga har tomonlama yondashib, javoblar sonini ko'paytiradilar [11,12].



1-rasm. STEAM ta'lif tizimi yo'nalishlari.

Shu bilan birga, o'quvchilar bor materiallardan foydalana olish, yechimlar ichidan eng optimalini tanlay olish qobiliyatları ham rivojlanib boradi. Bundan tashqari kreativ – texnik ijodkorlik tushunchalariga ega bo'ladilar [13,14].

EKSPERIMENTAL NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Oldinlari texnologiya darslarida elektr jihozlarini plakat va stendlar yordamida ko'rsatib tushuntirilib kelingan. Psixologiyadan bizga ma'lumki, o'quvchilarning ham ko'rib, ham eshitishlari natijasida xotirada 50 % ma'lumotlar xotirada qolar ekan. Hozirgi kunga kelib, elektr jihozlari rivojlanib, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitila boshlandi. Bunda elektr jihozlari slaydlar orqali taqdimotlar o'tkazilib o'rnatilmoqda. Bu esa o'quvchilarning ma'lumotlarni xotiralab qolishini 65% ga ko'tardi. Ushbu texnologiyaning kamchiligi o'quvchida mavzu yuzasidan tug'ilib qolgan savolga javobning yo'qligidir.

Ikkita sinf tanlab olinib ularning har biriga ikkita texnologiya (**telekommunikatsiya, vizualizatsiya**) tajriba sinov tariqasida qo'llanildi.

Birinchi sinfga telekommunikatsiya texnologiyasi qo'llanilib, unda ishlab chiqarish korxonasi mutaxassis bilan videoaloqa orqali suhbat olib borildi. Mutaxassis xodim o'quvchilarga 2 va 3 - rasmlarda ko'rsatilgan drel va metal kesish elektr asboblarining qismlarini tayyorlanish jarayonini ko'rsatdi, nomlari bilan tanishtirdi va yig'ib yahlit holatga keltirdi. Videoaloqa davomida o'quvchilar tushunmay qolgan joylarini mutaxassisiga savol berib javob oldilar va bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish korxonasiga videoekskursiya qildilar. O'quvchilar videosuhbatni yozib olib bir biriga ulashdilar. Bu amal bilan o'quvchilar suhbatni istalgan paytda qaytadan ko'rish imkoniyatiga ega bo'lilar. O'quvchilar darsni maroq bilan kuzatishdi va o'zları ham qatnashdilar. Ayrim o'quvchilar mutaxassis kasbiga ham qiziqib qoldilar. Bu tajribada o'quvchilarning ma'lumotni xotiralarida qolish foizi 70% ni tashkil qildi.



2-rasm. Drelning ichki ko'rinishi.



3-rasm Metal kesish elektr asbobi


Ikkinci sinfga vizualizatsiya texnologiyasi qo'llanildi. 1-bosqichda o'quvchilarga darslikda berilgan ma'lumotlarni yaxshilab o'qib chiqish topshirig'i berildi. 2- bosqichda darslikda elektr drelning rasmi yonidagi QR shtrix kodiga smart telefon kamerasi yoqilgan holda yaqinlashtirishlarini o'qituvchi aytdi. Dastur yordamida Web saytiga oldin joylashtirilgan visual tasvir o'quvchilarning telefonlari ekranlarida namoyon bo'ldi (4-rasm). O'quvchilar elektr drelning uch o'lchamli tasvirini ko'rishdi. Tasvirda elektrodvigatelning magnit maydon kuchlarining o'zaro ta'sirini, aylanish yo'nalishini ko'rdilar. Yana o'quvchilar elektr drelni 360° darajada aylantirib, jihozning ko'ndalang kesimini ham tomosha qildilar. Ko'ndalang kesim drelning ichki qismlari tuzilishi haqida malumot berib, animatsiya yordamida mexanizmlar harakati ko'rsatildi. Ushbu vizual texnologiya o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni orttirdi. Chunki visual tasvir real hayotdagi tasvirga yaqin edi.

O'quvchilarga STEAM metodini qo'llash. Sinf o'quvchilari ikki yoki uchta guruhgaga ajratiladi. O'quvchilarga "Elektr drel qayerlarda ishlataladi?", "Elektr drel nima uchun kerak? degan savol o'rta ga tashlanadi va javoblar bir nechta bo'lishi kerakligi aytildi. Savollarga javob topishda albatta ma'lum vaqt beriladi. O'quvchilar beshta (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at, matematika) yo'nalish bo'yicha yechim topib asoslاب beradilar. O'quvchilar savollarga barcha fanlardan olingan bilimlarini jamlab nazariy va mantiqiy o'ylab javob beradilar. Topilgan yechimlardan eng optimal variantni tanlab guruh sardorlari o'qituvchiga aytadilar. Bu yerda o'qituvchi boshlovchi va boshqaruvchi bo'ladi. Guruh sardorlaridan eshitgan javoblarni o'qituvchi muhokama qilib baho qo'yadi va g'oliblarni rag'batlantiradi. Ushbu metod orqali o'quvchilar barcha fanlardan olgan bilimlarini kompleks ishlata olish tushunchasini egallaydilar va muammoli vaziyatlarda bitta yechim emas balki bir nechta yechimlarni topa olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. O'tkazilgan tajriba darsimiz natijasi shuni ko'rsatadi, ananaviy darslarga nisbatan STEAM metodini qo'llaganimizda o'quvchilarning aktivligi 10 % ga, ma'lumotlarni esda qolishi 5% ga, kreativ yondashuvlari 15% ga oshganligi aniqladik.

XULOSA.

Texnika fanlarini o'qitishda oldinlari faqat qog'oz plakatlar va bannerlarga tushirilgan rasmlar yordamida o'rgatilgan. Bu bilimlarni o'quvchilar tasavvur qilishlari uchun yetarli darajada bo'limgan. Chunki o'quvchi bitta rasm orqali elektr jihozning ko'rinishi haqida tasavvurga ega bo'ladi xolos. Audio, video, multimedia, virtual darsliklar yordamida esa jihozning harakati va bajaradigan ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar va unda qatnashadilar. Telekommunikatsiya va vizualizatsiya texnologiyalari yordamida bevosita qatnashib bo'lmaydigan jarayonlarda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib tasavvurini boyitib borish mumkin.

STEAM metodida o'quvchilarga zamonaviy elektr jihozlarini faqat bitta yo'nalish bo'yicha tushuncha berish yaxshi samara bermasligi aniqlandi. Bir qancha yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar berish orqali o'quvchilar tug'ilgan muammoning javoblar sonini orttiradi va bu javoblarning eng maqbulini tanlashni ham bilib oladilar. Bundan tashqari fanlarning bir biriga bog'liqligini, ikkita fan bitta savolga yechim bo'lishi mumkinligi haqida o'quvchilar bilib oladilar.



4-rasm. Elektrodvigatelning magnit maydon kuchlarining o'zaro ta'siri

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 avgustdagi 'O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lrim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi PF-5847-son Farmoni. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of August 8, 2019 "On approval of the Concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030".)
2. Davlat boshqaruvida axborot – kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent 2005. 23-bet. (Information and communication technologies in public administration. Tashkent 2005. p.23).
3. Sharipov Sh.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'rinqoma. Toshkent-2002. (Sharipov Sh.S., Jalilov T. Rules of safety and industrial sanitation. Methodical instructions. Tashkent-2002)
4. Steven W. Blume, Electric power system basics, USA, 2007.
5. I. G. Tursunov, and U. A. Eshniyozov. 'Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarini qo'llash' Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 1030-1040. doi:10.24411/2181-1385-2021-00698. (I.G.Tursunov, and U.A.Eshniyozov. 'The use of innovative technologies in the teaching of electrical engineering' Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 1030-1040. doi:10.24411 / 2181-1385-2021-00698.)
6. K.R.Nasriddinov, O.Qayumov, M.B.Dusmuradov Fizika ta'limalda axborot texnologiyalarini qo'llash. "Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetentligini rivojlantirish" TDPU 2015. (K.R.Nasriddinov, O.Kayumov, M.B.Dusmuradov The use of information technology in physics education. "Development of competence of teachers in the design of personal and professional information space on information and communication technologies" TDPU 2015.)
7. Karimov R.Ch., Rafiqova G.R. Elektr xavfsizligi asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: Spectrum Media Group. 2015. (Karimov R.Ch., Rafiqova G.R. Basics of electrical safety. Study guide. -T.: Spectrum Media Group. 2015.)
8. Elektr qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari. 'O'zdavenergonazorat' elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiysi. -T.: Mehnat. 2016. (Safety rules for the operation of electrical equipment. Uzdavenergonazorat State Inspectorate for Electricity Supervision. -T.: Labor. 2016.)
9. Ш.Шукратов, Ю.Шукратова, Х.Рахмонжонов. Применение творческих методов в непрерывном профессиональном образовании. Universum: психология и образование: научный журнал. – № 4(94). М., Изд. 'МЦНО', 2022. С. 7-10. (Sh.Shukhratov, Yu.Shukhratova, X.Rakhmonjonov. Application of creative methods in uninterrupted professional education. Universum: psychology and education: scientific journal. - № 4 (94). M., Izd. 'MTsNO', 2022. p. 7-10.)
10. Shukhratov, Sh.; Milašius, R.; Gafurov, K.; Gafurov, J. Investigation of twist waves distribution along structurally nonuniform yarn // Autex research journal. Warsaw : Sciendo. ISSN 1470-9589. 2021, p. 1-5. DOI: 10.2478/aut-2021-0040.
11. Shukhratov S, Milašius R, Gafurov J, Mardonov B, Gafurov K, Repon R Md. Investigation of Open End Yarn Tension Using an Elastic Yarn-Guide. FIBRES & TEXTILES in Eastern Europe 2021; 29, 4(148): 43-47. DOI: 10.5604/01.3001.0014.8230
12. Shukhratov Sh, Milašius R, Gafurov K, Maksudov R, Gafurov J, Tojimirzaev S. Improvement in the Design and Methods of Calculation of Parameters of Vibration Multifaceted Gridirons of Natural Fibre Cleaners. FIBRES & TEXTILES in Eastern Europe 2021; 29, 5(149): 29-33. DOI: 10.5604/01.3001.0014.9292
13. Максудов, Р., А. Джураев, and Ш. Шукратов. 'НАУКА И МИР.' НАУКА И МИР Учредители: Издательство Научное обозрение 1.1 (2021): 41-47.
14. Djurayev, A., Maksudov, R. X., Shukhratov, S., & Tashpulatov, D. S. (2018). Improvement in design and methods of calculation the characteristics of vibrant diamond bars of cotton cleaners. International journal of advanced research in science, engineering and technology, 5(11), 397-401.